



REFORMS AND DEVELOPMENT TRENDS IN THE SERICULTURE SECTOR IN UZBEKISTAN IN 2000-2021

Makhtubakhon Sodikova

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: sodikovamahbubahon@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Sericulture, "UzbekIpaksanoat", strategy, silk products, cocoon raw materials, export, cocoon cultivation, cocoon raw materials, sericulture, mulberry plantations.

Received: 22.03.25

Accepted: 24.03.25

Published: 26.03.25

Abstract: This article analyzes the development process of the sericulture industry in Uzbekistan, which has a rich historical heritage and cultural significance, as well as its economic importance. The article examines the role of sericulture in the economy and culture of Uzbekistan, the stages of its development, and the state policies and reforms aimed at developing the industry. Statistical data on the reforms and development directions of the sericulture industry in Uzbekistan for 2000-2021 are presented. These data generally describe the reforms and development directions of the sericulture industry in Uzbekistan.

2000-2021-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA IPAKCHILIK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Maxbubaxon Sodiqova

o‘qituvchi

Farg‘ona davlat universiteti

Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: sodikovamahbubahon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ipakchilik, O‘zbekipaksanoat, strategiya, ipak mahsulotlari, pilla xomashyosi, eksport, pilla yetishtirish, xom pilla, tutchilik, tutzorlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy tarixiy merosi va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ipakchilik sohasining rivojlanish jarayoni va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ipakchilikning O‘zbekiston iqtisodiyoti va madaniyatida tutgan o‘rni, uning rivojlanish

bosqichlari, shuningdek, sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va islohotlar ko'rib chiqiladi. 2000-2021-yillarda O'zbekistonda ipakchilik sohasidagi islohotlar va rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar berilgan. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonning ipakchilik sohasidagi islohotlar va rivojlanish yo'nalishlarini umumiy tarzda tasvirlaydi.

РЕФОРМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ШЕЛКОВОДСТВА УЗБЕКИСТАНА В 2000-2021 ГОДАХ

Махбубахон Садыкова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: sodikovamahbubahon@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Шелководство, «Узбекипаксаноат», стратегия, шелковая продукция, сырье коконов, экспорт, выращивание коконов, сырье коконов, шелководство, тутовые плантации.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс развития шелководческой отрасли в Узбекистане, обладающей богатым историческим наследием и культурным значением, а также её экономическая значимость. В статье рассматривается роль шелководства в экономике и культуре Узбекистана, этапы его развития, а также государственная политика и реформы, направленные на развитие отрасли. Представлены статистические данные по реформам и направлениям развития шелководческой отрасли в Узбекистане за 2000-2021 годы. Эти данные в общих чертах описывают реформы и направления развития шелководческой отрасли Узбекистана.

Ipakchilik dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Jumladan O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining bir qismi sifatida ko'plab ish o'rinlari yaratadi. Ipakchilik sohasi mahalliy hamda milliy iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Ipakdan tayyorlangan matolar yuqori sifatli va qimmatbaho bo'lib, ular kiyim-kechak, uy to'qimachilik mahsulotlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

2000-2021-yillarda O'zbekistonda ipakchilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalash, jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini ko'paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida “ipak mahsulotlari eksportini 95 mln AQSh dollariga yetkazish” strategik vazifa sifatida belgilandi. O‘zbekistonda ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usuliga bosqichma-bosqich o‘tish, pillani qayta ishlash korxonalarining o‘zlariga qarashli ozuqa bazasini yaratish, pilla xomashyosi yetishtirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va uni eksportga yo‘naltirilgan yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot holiga keltirgunga qadar chuqur qayta ishlash, xalqaro bozorlarda chuqur marketing tadqiqotlarini olib borish orqali ipakchilik korxonalarini innovatsion rivojlantirish masalalari ko‘rildi.

2010-2017-yillarda yetarli moddiy manfaatdorlik bo‘lmagani sababli aholi orasida ipak qurti parvarishlashga ishtiyoq susaygan, oqibatda pilla yetishtirish, uni chuqur qayta ishlash va eksport qilish ko‘rsatkichlari keskin tushib ketgan edi. 2017-yilda uy sharoitida tirik pilla yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi (kasanachi)lar–jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lashdan ozod etildi. Shuningdek pilla yetishtiruvchi tashkilotlar pilla yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi kasanachilar va boshqa ishchi-pillakorlar mehnatiga haq to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lari bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovdan ozod etildi. Bundan bo‘shagan mablag‘lar kasanachilar va ishchi-pillakorlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirildi.

2018-yildan davlat rahbarining alohida e‘tibori tufayli mazkur soha rivojida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Pillachilarning moddiy manfaatdorligi oshirilib, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatildi. 2024-yilda Senatning yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qonun ko‘rib chiqildi. Unda uy sharoitida pilla yetishtirgan fuqarolar daromad solig‘idan ozod qilinib, bir mavsum ishlagan davri pensiya tayinlash uchun bir yil mehnat stajiga o‘tishi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Bu pillachilik bilan shug‘ullanib kelayotgan minglab ayollar uchun juda katta rag‘bat bo‘ldi.

2021-yilda O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib buxorolik mehnatkash pillakorlar belgilangan rejani bajardilar. 41 ming 853 ta oilaviy pudrat va kasanachilar tomonidan 42 ming 36 quti ipak qurtidan 2 ming 350 tonna pilla xirmoni yaratildi. Ipak qurti boqish mavsumi erta boshlangan Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ham hirmonlar to‘ldi. Sohada innovatsion yangilik, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi hisobiga bir yilda to‘rt martagacha ipak qurtini parvarishlash va pilla yetishtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ozuqa bazasiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu bois, “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan yurtimiz ob-havosiga mos tut daraxtlarining yangi hosildor navlarini yaratish va ko‘paytirish borasida tizimli ishlar olib borildi. Xususan, 2021-yilda Andijon viloyati Marhamat tumanida respublikadagi birinchi tutchilik klasteri faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-sonli qaroriga asosan, mavjud tutzorlarni aholi daromadini oshirish maqsadida, ya’ni aholi tomonidan yetishtirilgan pilla hosilini sotishdan tashqari tutzorlar orasiga qo‘shimcha ekinlar ekish orqali olinadigan daromatlarni ularning o‘zlariga qoldirish maqsadida 54,8 ming gektar tutzorlar 64,8 ming nafar aholiga biriktirib berilgan. Farg‘ona viloyatida 2018-2019 yillarda 12300 gektardan ortiq tut plantatsiyalari tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida 2016-2021-yillarda yetishtirilgan tut yetishtirish ko‘rsatkichlari.

Code	Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1700	O‘zbekiston Respublikasi	26356	12480	17912	21374	20942	22770
1735	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	853	347	607	685	704	752
1703	Andijon viloyati	3303	2110	2451	3060	2723	2913
1706	Buxoro viloyati	3100	1855	1660	2043	1753	2385
1708	Jizzax viloyati	642	400	596	642	731	754
1710	Qashqadaryo viloyati	3082	1069	1813	2185	2013	2142
1712	Navoiy viloyati	1008	654	801	970	932	957
1714	Namangan viloyati	2827	602	1498	1636	1805	1989
1718	Samarqand viloyati	2830	1984	2241	2943	2932	2953
1722	Surxondaryo viloyati	1553	1131	1516	1627	1661	1715
1724	Sirdaryo viloyati	616	133	401	483	458	624
1727	Toshkent viloyati	1641	533	1167	1170	1453	1581
1730	Farg‘ona viloyati	2723	859	1655	2056	2011	2118
1733	Xorazm viloyati	2178	804	1506	1875	1765	1887
1726	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0

2017-yilda O‘zbekiston tarixida ipakchilik yo‘nalishida birinchi marta tut ko‘chatlarini eksport qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. 2017-yilda 7,5 mln tup, 2019-yilda 13,4 mln tup, jami 20,9 mln tup tut ko‘chatlari 1,1 mln AQSh dollar evaziga import qilindi.

2017-yilning sentyabr oyida O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida yigirmanchi davlat sifatida Xalqaro ipakchilik kengashiga (ISC) a’zo bo‘ldi. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi qoshida 13 ta hududiy, 144 ta tuman “Agropilla” MChJlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda tizimda 11 ta ipak qurti urug‘i tayyorlovchi, 71 ta klaster usulida pillani yetishtirish va qayta ishlash asnosida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etildi. Jami 761 mingta ish o‘rni yaratildi. Shundan 24 ming 440 tasi doimiy va 736 ming 567 tasi mavsumiy ish o‘rnini tashkil qilindi.

**O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha ipakchilik sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi, mlrd so‘mga nisbatan**

T/r	Hududlar	2019	2020	2021	O‘sish %
1	QQ Respublikasi	18,5	28,6	38,0	85,1
	Viloyatlar				
2	Andijon	82,3	110,6	147,5	340,4
3	Buxoro	61,3	71,1	119,5	251,9
4	Jizzax	17,8	29,5	38,0	85,3
5	Navoiy	59,6	81,7	108,6	249,9
6	Namangan	26,4	37,8	48,3	112,5
7	Qashqadaryo	49,8	73,3	95,6	218,7
8	Samarqand	79,6	130,7	147,4	357,7
9	Surxondaryo	45,0	67,0	86,9	198,9
10	Sirdaryo	12,9	18,6	31,5	63
11	Toshkent	34,2	58,8	77,6	170,6
12	Farg‘ona	55,1	81,6	105,9	242,6
13	Xorazm	50,2	71,7	95,6	217,5

2017–2022-yillarda ipakli matolar ishlab chiqarish hajmi 15,2 foizga oshgan. Ishlab chiqarilgan ipakli matolarning 2017-yilda 71,4 foizi, 579,2 ming m² mato ichki ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan va ular tayyor mahsulot sifatida ichki bozorlarda sotilgan. Ipak chiqindilarini mahalliy qayta ishlash darajasi ham yillar davomida o‘sib borgan va natijada ipak chiqindilari eksportining jami eksportdagi ulushi 2017-yildagi 20 foizdan kamayib, mahalliy korxonalar tomonidan to‘liq qayta ishlangan.

O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarining iqlimi va mavjud imkoniyatlar ipakchilik sohasini rivojlantirishga mosdir. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda qishloq joylarda aholi bandligini ta‘minlash, tarmoqning eksport salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, 2000-2021-yillar davomida O‘zbekistonda ipakchilik sohasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davr ikki asosiy bosqichga bo‘linishi mumkin: 2000-2016-yillarda ipakchilik sohasida nisbatan turg‘unlik davri bo‘ldi. Asosiy muammolar sifatida eskirgan texnologiyalar, past ishlab chiqarish hajmi va sifati, cheklangan eksport salohiyati va malakali mutaxassislar yetishmasligi qayd etildi.

2017-2021-yillarda sohada tub islohotlar davri bo‘ldi. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil etildi, bu sohani rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Klaster tizimi joriy etildi, bu ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirdi. Korxonalarni modernizatsiya qilish uchun investitsiyalar jalb qilindi, zamonaviy texnologiyalar joriy etildi. Eksport hajmi sezilarli darajada oshdi. Malakali mutaxassislar tayyorlashga e‘tibor kuchaytirildi. Bu o‘zgarishlar O‘zbekiston ipakchilik sanoatining kelajakdagi rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
2. B.Berdiyev. Ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari. Avtoreferat.2024-yil, 1-64 bet
3. Jumayev O. Ipakchilik korxonalarida marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Avoreferat. 1-56 bet. 2024-yil
4. Raximova K. Yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik biznesni shakllantirish va faoliyatini samaradorligini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribasi. Ilm fan xabarnomasi. 1-son, aprel, 2024. 227-229 bet.
5. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
6. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi ma'lumotlari.
7. <https://www.kun.uz/Uydapillayetishtirishbilanshug'ullanuvchilardaromadsolig'idanozod etiladi/2017>
8. <https://yuz.uz/uz/news/dunyo-ipakchiligi-akseleratori>
9. <https://yuz.uz/uz/news/tutchilik-klasterida-innovatsion-mahsulotlar-ishlab-chiqariladi>
10. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>